

Xorijiy kredit linya mablag'lari hisobidan ajratiladigan kredit turlari

2022 yil 15 oktabrda "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakultetida ATB Turonbank xonasida "Xorijiy kredit linya mablag'lari hisobidan ajratiladigan kredit turlari" mavzusi bo'yicha navbatdagi seminar bo'lib o'tdi. Seminarda ATB Turonbankning Kreditlarni boshqarish departamenti direktor o'rinosanasi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha taqdimot qildi.

- Chorvachilikni rivojlantirish, naslli chorva mollari sotib olish, parrandachilikni rivojlantirish, qorako'lchilikni rivojlantirish uchun mayda shohli qo'ylar sotib olish;
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish tizimini kengaytirish, shuningdek, turizm va hunarmandchilikni rivojlantirish;
- Qishloq xo'jaligining barcha sohalari (paxta, g'alla yetishtirish va savdodan tashqari)dagi investitsion loyihalar va aylanma mablag'larni to'ldirish moliyalashtiriladi;
- Texnologik uskunalar va maxsus texnika xaridini moliyalashtirish;
- Germaniya va Yevropa davlatlaridan texnologik uskunalar va maxsus texnika xaridini moliyalashtirish;
- Intensiv bog'lar va uzumzorlar yaratish, energiya tejayidigan sug'orish tizimlari, quyoshdan suv isitish tizimlari va suv ko'targichlar, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash, meva-sabzavotchilik mahsulotlari qadoqlash tara ishlab chiqarish;
- Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy yordam shakllari;
- Kredit bo'yicha taqdim etilishi mumkin bo'lgan ta'minotlar turlari va ularning qiymati;

Seminar mavzusi bevosita ATB Turonbank misolida bo'lganligi uchun jada qiziqarli bo'lib, savol javoblarga boy bo'ldi.





Seminar ishtirokchilarini hozirda yurtimiz bank tizimida amalga oshirilayotgan ishlar, ayniqsa yurtimizda imonchilik faoliyatini bank tomonidan qo'llab - quvvatlanayotganligi va banklararo raqobat sharoitida mijozlar bilan ishlashda qo'llanilayotgan iqtisodiy mexanizm va dastaglar qiziqtirdi.

Seminarda berilgan savollarga asosli javoblar berildi. Seminar ishtirokchilari ATB Turonbank xodimiga

qilingan taqdimot va savollarga berilgan javoblar uchun samimiy minnatdorchiliklar bildirishdi.

SXTEB fakulteti dekani muovini U.Xoliyorov